O’zbekiston aholisining iqlim o’zgarishi natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlarga nisbatan chidamliligini oshirishga qaratilgan

KOMPLEKS ERTA OGOHLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

MULTI-HAZARD EARLY WARNING SYSTEMS

EARLY WARNING EARLY ACTION

HAMKORLAR:
Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zgidromet

MOLIYALASHTIRISH:
Yashil iqlim jamg‘armasi

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH MUDDATI: 2021 - 2027 rr.

LOYIHA BUDJETI:
9 999 455 AQSh dollari

LOYIHA GEOGRAFIYASI:
7ta viloyat | 15ta tuman | 44ta mahalla

SDG (Barqaror rivojlanish maqsadlari)

Umumiy ma’lumot

Loyiha O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi oqibatida yuzaga keladigan xavfli tabiiy hodisalar bo‘yicha Kompleks erta ogohlantirish tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu tizim tabiiy ofatlar xavfini oldindan prognoz qilish, aholini ular haqida o‘z vaqtida ogohlantirish hamda shu orqali insonlar hayotini saqlab qolish va iqtisodiy zararlarni kamaytirish imkonini beradi.

Loyihaning asosiy maqsadlari

1. Gidrometeorologik kuzatuvlar tarmog'ini, shuningdek, modellashtirish va prognozlash imkoniyatlarini kuchaytirish
2. Ko‘p sonli xatarlarga doir Kompleks erta ogohlantirish tizimini yaratish
3. Iqlim xizmatlarini rivojlantirish va favqulodda vaziyatlar xavfi haqida aholini xabardorligini oshirish

Loyihaning asosiy natijalari

Gidrometeorologik kuzatuvlar tarmog‘ini kuchaytirish

Qor ko‘chkilari, sellar, ko‘chkilar va gidrologik qurg‘oqchiliklar bilan bog‘liq **iqlim xavflarini baholash uchun ko‘p modulli platforma** ishlab chiqilmoqda. Hozirgi bosqichda ko‘chki xavfini baholash modeli ishlab chiqilgan.

600+ nafar O‘zgidromet xodimlari taqdim etilgan qurilmadan foydalanish va unga xizmat ko‘rsatish hamda sel-toshqin, qor ko‘chishi kabi faolliklar bilan bog‘liq xatarlarni baholashga o‘qitildi.

Gidrometeorologik kuzatishlar tarmog‘ini takomillashtirish maqsadida quyidagilar O‘zgidromet ixtiyoriga topshirildi:

25 ta avtomatik meteostansiya;

10 ta fotoelektr stansiyasi;

45 ta suv oqimi tezligi va sarfini o‘lchash uchun elektromagnit tizimi;

10 hududiy bo‘linmalar bilan integratsiyalangan tizimni yaratish uchun 10 ta videopanellar to‘plami;

9 ta suv sarfini o‘lchovchi kontaktsiz Doppler tizimi;

O‘zgidromet vaziyatlar markazini yaratish uchun AKT-uskunalari;

3 ta daryo va kanallarda oqim tezligi, chuqurligi va suv sarfini o‘lchash tizimi;

2 ta yuqori atmosfera qatlamlarini radiozondlash uskunalari;

2 ta X-band radari. Radarlar xavfli meteorologik hodisalarni prognozlash imkonini beradi.

Kompleks erta ogohlantirish tizimini takomillashtirish

Loyiha doirasida ishlab chiqilgan Erta ogohlantirish tizimlari bo‘yicha milliy standart (O‘zMSt 520:2025 “Fuqaro muhofazasi. Aholini favqulodda vaziyatlar xavfi yoki yuzaga kelishi to‘g‘risida ogohlantirish va xabardor qilish tizimi. Umumiy texnik talablar”) qabul qilindi.

6 ta hududiy Favqulodda vaziyatlarni tezkor boshqarish markazi videopanellar bilan jihozlandi;

272 7 ta hududdagi ta masjid aholini avtomatlashtirilgan ogohlantirish va xabardor qilish qurilmalari bilan jihozlandi;

masjidlar orqali ogohlantirish va xabardor qilish tizimi **6,5 million** aholini qamrab oladi

7 ta UKV-FM radioeshittirish tarmog‘iga avtonom ulanish qurilmasi favqulodda vaziyatlarda aholini ogohlantirish uchun o‘rnatildi;

3 ta elektr sirena tabiiy ofatlar xavfi yuqori bo‘lgan Shohimardon aholi punktida o‘rnatildi;

Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish, prognozlash va ularga tezkor javob berish samaradorligini oshirish maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligida **geografik axborot tizimlari (GIS) asosidagi platforma** ishlab chiqildi va joriy etildi. Platformaning samarali ishlashini ta’minlash uchun zamonaviy AKT uskunalari va dasturiy ta’minot xarid qilindi.

Iqlim xizmatlarini rivojlantirish va favqulodda vaziyatlar xavfi haqida aholini xabardorligini oshirish

O‘zbekistonda Gidrometeorologik va iqlim xizmatlari milliy hadli asos konsepsiyasi va uni joriy etish rejasi ishlab chiqildi. Shuningdek, iqlim xizmatlarini O‘zgidromet faoliyatiga joriy etish bo‘yicha biznes-model ishlab chiqildi.

AHOLINI TABIIY OFATLARGA TAYYORLASH VA OGOHLANTIRISHNI KUCHAYTIRISH

3700+ nafardan ortiq kishi, jumladan mahalliy aholi va davlat idoralari xodimlari Namangan, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax va Toshkent viloyatlarida o‘tkazilgan taktik o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirok etdi. Ushbu mashg‘ulotlarning maqsadi aholining xabardorligini oshirish hamda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda to‘g‘ri va samarali harakat qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

1500+ nafardan ortiq mahalla faollari tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish, erta ogohlantirish hamda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha o‘quv treninglarida ishtirok etdi.

28 ta tashqi axborot ekrani O‘zbekistonning 7 ta maqsadli hududida aholini ogohlantirish maqsadida o‘rnatildi.

Aloqa uchun: **Ulugbek Dedabayev,** loyiha rahbari
Elektron pochta: ulugbek.dedabaev@undp.org